

QO'CHQOR NORQOBIL IJODIDA AFG'ON URUSHI VA INSON RUHIYATI

Tursunova Aziza Murod qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

Adabiyot nazariyasi

yo'nalishi 1- kurs magistranti

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida Afg'on urushi mavzusining badiiy talqini Qo'chqor Norqobil ijodi misolida tahlil qilinadi. Adib asarlarida urushning jang maydonidagi manzaralaridan tashqari, uning inson ruhiyatiga, shaxs taqdiriga va jamiyat ma'naviy hayotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda yozuvchining urushga bo'lgan munosabati, psixologik tasvir usullari hamda insonparvarlik g'oyasining ifodalanishi ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

KALIT SO'ZLAR: Afg'on urushi, Qo'chqor Norqobil, badiiy talqin, urush fojeasi, psixologik tahlil.

ANNOTATION. This article analyzes the artistic interpretation of the Afghan War in Uzbek literature through the works of Kuchkor Norkobil. The study focuses not only on battle scenes, but also on the psychological trauma of war, its impact on human destiny and the moral degradation of society. The writer's humanistic position, narrative techniques and psychological portrayal are examined from a scholarly perspective.

KEY WORDS: Afghan War, Kuchkor Norkobil, artistic interpretation, war tragedy, psychological analysis.

Millatning, umuman, insoniyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Adabiyot ana shu jarayonlarga badiiy ko'zgu bo'lib, jamiyatda yuz berayotgan voqealarning san'atda aks etishiga sabab bo'ladi. XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan Afg'on urushi Sobiq Ittifoq tarkibidagi xalqlar hayotida chuqur iz qoldiribgina qolmay, millat dardini ifodalovchi ijodkorlar asarlarida yetakchi mavzulardan biriga aylandi.

Parandovskiy bu holatni quyidagicha izohlaydi: "...Ammo alg'ov-dalg'ovli, mudhish voqealar ro'y berishi bilanoq ijodga da'vat uyg'onadi. Urushdan keyingi yillarda ham xuddi shunday bo'ldi; shafqatsiz va dahshatli urush ko'plab mamlakatlarda odamlarni qo'lga qalam olib, boshidan kechirganlarini yozishga majbur qildi. Do'xaxni boshidan oxirigacha kechirgan inson yana avvalgi sukut holatiga qayta olmaydi. Hatto bolalar ham qo'llariga qalam oldilar. Jumladan, o'n to'rt yoshli Anna Frankning kundaliklari buning yorqin dalilidir."

O'zbek adabiyotida Afg'on urushi mavzusi aynan inson fojeasi nuqtayi nazaridan yoritila boshlandi. Qo'chqor Norqobil ana shu adabiy jarayonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, urush mavzusini chuqur psixologik va falsafiy talqin etgan adib sifatida e'tirof etiladi. Yozuvchi ijodida urush mafkuraviy shiorlardan xoli, hayotiy va ishonarli tarzda aks ettiriladi. Adib urush mohiyatini jang manzaralari orqali emas, balki inson ongida kechadigan ichki ruhiy jarayonlar orqali ochib beradi.

Qo'chqor Norqobil asarlarida Afg'on urushi inson hayotini izdan chiqaruvchi, uni ruhan sindiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Qahramon ko'pincha yozuvchining o'zi bo'lsa-da, asarlar uchinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bu usul orqali adib urushdan qaytgach, tinch hayotga moslasha olmaslik, ichki bo'shliq va begonalashuv holatini yanada obyektivroq yoritishga erishadi. Bu holat urushning eng dahshatli oqibatlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Yozuvchi urush dahshatlarini shaxsan boshidan kechirgan ijodkor sifatida bu mavzuni ko'pincha orqa fonda tasvirlaydi, biroq uning inson taqdirida tub burilish yasaganini chuqur ochib beradi. Adibning "Osmon ostidagi sir" qissasida ushbu fojea To'lqin tank, uning ayoli Xayriniso hamda Ro'zi maxsum taqdiri orqali yoritiladi. Bir qarashda fojining sababchisi sifatida Muhtar kampir yoki Ro'zi maxsum ko'rinadi. Biroq yozuvchi barcha fojealarning ildizini To'lqin tankning Afg'on urushidan orttirgan jismoniy va ruhiy jarohatlariga bog'laydi. Xayrinisoning onasi o'lguniga qadar homiladorligi va Ro'zi maxsum haqidagi haqiqat haqida og'iz ochmagani, yakunda esa Yodgoroy bilan To'lqin tankning qabriga borib, Ro'zi maxsumning qabriga ham gul qo'yilgani yozuvchining hech kimni bevosita aybdor qilmasdan, muammoni kitobxon hukmiga havola etganidan dalolat beradi.

Qo'chqor Norqobil ijodida urushdan keyingi ruhiy iztirob va psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Qahramonlar ko'pincha sukut saqlaydi, atrofdagilar bilan muloqotdan qochadi. Ushbu sukut urushda ko'rilgan dahshatlarning og'ir yukini ifodalaydi. Yozuvchi mayda badiiy detallar, tushlar, xotiralar va ichki dialoglar orqali qahramon ruhiyatini ochib beradi. Urush xotiraları qahramon ongida doimiy yashab qolishi tasvirlanadi: "To'lqin tank u yoqda, daryo ortida xizmatni o'tab qaytgandan so'ng bir zamon hardamxayol bo'lib yurdi. Elga esh, qariga yosh bo'lolmadi. Odamovilikni orttirib keldi. O'ziyam tamakini ketma-ket, oradan shamol o'tkazmay parovozday tutatardi. Bir nuqtaga termilib turaverardi."

"Osmon ostidagi sir" qissasidagi To'lqin tank, "O'n sakkizga kirmagan men bor" hamda "Kulib tur, azizim" asarlaridagi bosh qahramonlar urushdan so'ng orziqib kutgan tinch hayotga moslasha olmaydi. Ular jang maydonlarida intiq bo'lgan osoyishtalikni real hayotda topa olmay, ruhiy iztirob girdobida qoladilar. Shu bois yozuvchi asarlarida urushni boshdan kechirgan har bir qahramon hayoti urushdan oldingi va urushdan keyingi davrlarga — go'yo oq va qora qismlarga ajratiladi.

Adib urush fojiasini faqat askar taqdiri bilan cheklab qo'ymaydi. Asarlarda ota-onalar (To'lqin tankning ota-onasi), yorlar ("O'n sakkizga kirmagan men bor", "Kulib tur, azizim"), yosh qizlar (Liliya obrazi) orqali urushning jamiyat miqyosidagi fojiasi ochiladi. Bu obrazlar orqali yozuvchi urush faqat frontda emas, balki har bir xonadonda kechadigan fojia ekanini badiiy asosda ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qo'chqor Norqobil ijodida Afg'on urushi mavzusi harbiy voqea sifatida emas, balki inson taqdiri va ruhiy olamini vayron qiluvchi fojia sifatida talqin etiladi. Yozuvchi urushning nafaqat askar hayotiga, balki ularning oilasi, yaqinlari va butun jamiyat ma'naviy hayotiga ko'rsatgan salbiy ta'sirini chuqur psixologik tahlil asosida ochib beradi. Adib asarlarida insonparvarlik g'oyasi yetakchi o'rin egallab, urushning hech qachon hech kim g'olib bo'lmasligi badiiy obrazlar orqali ta'kidlanadi. Shu jihatdan Qo'chqor Norqobil asarlari o'zbek adabiyotida urush va inson taqdiri masalasini yoritishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norqobil, Q. Osmon ostidagi sir. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2015. – 232 b
2. Parandovski, Y. So'z kimyosi. – Elektron resurs: Mutolaa mobil ilovasi. – Murojaat sanasi: 15.01.2026.
3. Norqobil, Q. O'n sakkizga kirmagan men bor. – Elektron resurs: Mutolaa mobil ilovasi. – Murojaat sanasi: 15.01.2026.
4. Norqobil, Q. Kulib tur, azizim // Yoshlik. – 2001. – №1. – 10 – 32 -b.